

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI MAKTABGA NUTQIY TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

Mamarajabova Zulfiya Narbayevna

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Surdopedagogika
va maxsus pedagogikaning klinik asoslari
kafedrasi professori, DSc.*

Muxamedova Sug'diyona Ikrom qizi

*Nizomiy nomidagi O'zMPU
Surdopedagogika yo'nalishi
Magistratura 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga nutqiy tayyorlash texnologiyasining ilmiy-pedagogik asoslari, bosqichlari, ilmiy-metodik tamoyillari keng yoritilgan. Nutqiy tayyorlov jarayonida eshitish qoldig'idan samarali foydalanish, texnik reabilitatsiya vositalarining ahamiyati hamda logoped va surdopedagoglarning o'zaro hamkorligi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Nutqiy tayyorlov, koxlear implant, eshitish apparati, surdopedagog, logopedik mashg'ulot, kommunikativ ko'nikma, pedagogik texnologiya.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТЕХНОЛОГИИ РЕЧЕВОЙ ПОДГОТОВКИ К ШКОЛЕ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

Аннотация: В статье представлен комплексный обзор научно-педагогических основ, этапов и научно-методических принципов технологии подготовки детей с нарушениями слуха к обучению в школе. Подробно рассматриваются вопросы эффективного использования остаточного слуха в

процессе подготовки к речи, значение технических средств реабилитации, а также взаимодействие логопедов и сурдопедагогов.

Ключевые слова: Подготовка к речи, кохлеарный имплант, слуховой аппарат, сурдопедагог, логопедическое лечение, коммуникативные навыки, педагогические технологии.

SCIENTIFIC THEORETICAL BASIS OF THE TECHNOLOGY OF SPEECH PREPARATION FOR SCHOOL OF CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS

Abstract: This article provides a comprehensive overview of the scientific and pedagogical foundations, stages, and scientific and methodological principles of the technology of speech preparation for school for children with hearing impairments. Detailed information is provided on the effective use of residual hearing in the process of speech preparation, the importance of technical rehabilitation tools, and the cooperation between speech therapists and deaf educators.

Keywords: Speech preparation, cochlear implant, hearing aid, deaf educator, speech therapy, communicative skills, pedagogical technology.

Jamiyatning har bir a'zosi, jumladan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ham sifatli ta'lim olish huquqiga ega. Biroq, bu toifadagi bolalarda nutqiy rivojlanishning sekin kechishi ularning maktabdagi o'quv faoliyatini qiyinlashtiradi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga nutqiy tayyorlash texnologiyasini to'g'ri tashkil etish ularning keyingi muvaffaqiyatli ta'lim olishini ta'minlaydi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqni rivojlantirishda alohida pedagogik yondashuvni talab qiladi. Maktabga kirish arafasida ularning nutqiy tayyorlov darajasi o'qituvchi nutqini anglash, topshiriqlarni tushunish, o'quv materialini o'zlashtirish va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish jarayonlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois, nutqiy tayyorlov texnologiyasining mazmuni, bosqichlari va uning ahamiyati surdopedagogika fani uchun strategik ahamiyatga ega.

Nutqiy tayyorgarlik — bu bolaning ogʻzaki va yozma nutq orqali fikrini ifodalay olish, eshitish orqali nutqni qabul qilish, tovushlarni farqlash va tushunish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarda bu jarayon maxsus sharoit va metodik yondashuvlarni talab etadi. Ularning nutqiy rivojlanishida quyidagi muammolar kuzatiladi: tovushlarni toʻliq yoki qisman eshitmaslik, fonematik idrokning yetarlicha rivojlanmaganligi, soʻz boyligining cheklanganligi, grammatik tuzilishdagi xatolar, muloqotda passivlik va ijtimoiy moslashuvda qiyinchilik va boshqalar. Shuning uchun maktabga tayyorlashda nafaqat nutqiy, balki psixologik, eshitish, muloqot va ijtimoiy koʻnikmalarni ham rivojlantirish zarur. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarda nutqiy idrok, ogʻzaki va yozma nutqni shakllantirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, maktab darslariga faol qatnashish qobiliyatini hosil qilish lozim.

Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarni maktabga nutqiy tayyorlashning asosiy maqsadi — bolada maktab taʼlimi talablariga mos ogʻzaki va yozma nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish, muloqotga kirishish koʻnikmalarini rivojlantirish hamda eshitish qoldigʻidan samarali foydalangan holda mustaqil oʻqish jarayoniga tayyorlashdan iboratdir. Yaʼni, bola oʻqituvchi nutqini tushunishi, sodda va oddiy gaplarni tuzishi, topshiriqni tinglab bajarishi, nutq orqali oʻz fikrini ifoda etishi, oʻqish-yozuv jarayoniga psixolingvistik tayyor boʻla olish kabi jarayonlarga erishgan boʻlishi lozim.

Nutqiy tayyorlash texnologiyasi quyidagi asosiy vazifalarni oʻz ichiga oladi:

1. Eshitish idrokini rivojlantirish: eshitish apparatidan toʻgʻri foydalanishni oʻrgatish, tovushlarni eshitib farqlash (baland, past, kuchli, kuchsiz), tovush manbaini aniqlash, eshitishga asoslangan muloqotni shakllantirish.
2. Fonetik-fonematik rivojlanishni taʼminlash: artikulyatsiya apparatini rivojlantirish, tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilishni shakllantirish, boʻgʻin, tovush tahlili va sintezi mashqlari. fonematik eshituvni (tovush farqini) rivojlantirishdan iborat.

3. Leksik boylikni kengaytirish: kundalik hayotga oid soʻzlar zaxirasini koʻpaytirish, predmet, harakat, belgi bildiruvchi soʻzlarni oʻrgatish, mavzuli lugʻat boyligini shakllantirish.

4. Grammatik tuzilmani shakllantirish: gap tuzish, grammatik bogʻlanishlarni toʻgʻri qoʻllash, feʼl zamonlari, son, kelishiklarni oʻrgatish, soʻz birikmalari tuzish mashqlari.

5. Dialogik va monologik nutqni rivojlantirish: savol-javob mashqlari, suhbatga kirishish, fikr aytish, qisqa hikoya tuzish, mazmunli gaplar aytish, nutqning muloqotga yoʻnaltirilgan shakllarini rivojlantirish.

6. Maktabga moslashgan nutqiy koʻnikmalarni shakllantirish: oʻqituvchi koʻrsatmasini tushunish: “Oling, qoʻying, chizing, yozing” kabi, darslikdagi matnlarni tushunishga tayyorlov mashqlari. boʻgʻinlab oʻqishga tayyorlash, maktabda uchraydigan nutqiy vaziyatlarga (sinfda javob berish, savol berish) oʻrgatish.

7. Muloqot madaniyatini rivojlantirish: navbat bilan gapirish, suhbatdoshni tinglash, mimika va jestlardan foydalanish, jamoaviy oʻyinlarda nutqiy faollikni oshirish.

8. Ota-ona bilan hamkorlikni tashkil qilish: uy sharoitida bajariladigan mashqlarni oʻrgatish, oilada nutqiy muhit yaratish, audiolog, logoped, surdopedagog bilan muntazam maslahatlar.

Eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarni maktabga nutqiy tayyorlashning asosiy maqsad va vazifalari — bolaning nutqiy, aqliy, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishini kompleks qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan. Bu jarayon puxta tashkil qilinganda, bola maktab taʼlimiga yuqori darajada tayyorlanadi, oʻqish-yozishni muvaffaqiyatli oʻzlashtiradi va ijtimoiy hayotda faol boʻlish koʻnikmasiga ega boʻladi.

Nutqiy tayyorlash texnologiyasi eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarning eshitish, nutq, tafakkur va muloqot koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks pedagogik jarayondir. Uning samaradorligi bir qator ilmiy-metodik tamoyillarga asoslanadi.

Индивидуallashtirish tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra har bir bolaning: eshitish darajasi, qoldiq eshituv imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish bosqichi, psixologik xususiyatlari, oilaviy sharoiti hisobga olinadi. Har bir bola uchun individual rivojlantirish dasturi tuzib chiqiladi va mashg'ulotlar shunga moslashtiriladi.

Kompensatsiya va korreksiya tamoyili. Eshitish nuqsoni oqibatida yuzaga kelgan: fonematik eshituvdagi kamchiliklar, talaffuz buzilishlari, lug'at qashshoqligi, grammatik cheklanishlar, maxsus pedagogik vositalar orqali bartaraf etiladi yoki kompensatsiya qilinadi. Bu tamoyil eshitish qoldig'idan maksimal darajada foydalanishni ko'zlaydi.

Tizimlilik va izchillik tamoyili. Nutqni rivojlantirish quyidagi ketma-ket bosqichlarda olib boriladi:

1. Eshitish idroki
2. Fonetik-fonematik rivojlanish
3. Lug'at boyligini kengaytirish
4. Grammatik tuzilmani shakllantirish
5. Dialogik va monologik nutq
6. Maktabga moslashtirilgan nutqiy ko'nikmalar

Har bir bosqich oldingisiga tayangan holda, izchil amalga oshiriladi.

Faollik va o'zaro muloqot tamoyili. Bola nutqni faqat tinglab emas, balki: faol suhbatda, o'yin davomida, savol-javob jarayonida, turli nutqiy vaziyatlarda amalda qo'llab o'rganadi. Mashg'ulotlar interfaol shakllarda tashkil qilinadi.

Vizual tayanchga tayanish tamoyili. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda: rasm, piktogramma, video, imo-ishora, labdan o'qish kabi ko'rish orqali idrok qilish vositalari kuchli rivojlangan bo'ladi. Shu sababli texnologiya nutqni o'rgatishda vizual ko'makdan keng foydalanadi.

Multisensor yondashuv tamoyili. Nutqni o'rgatish bir vaqtning o'zida bir necha sensor tizimlarni ishga solidi: eshitish, ko'rish, kinestetik (harakat), taktil (teginish orqali sezish), vizual-verbal o'rganish. Bu tamoyil eshitish qobiliyati cheklangan bolalarda nutqni tezroq va samaraliroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Bosqichma-bosqich murakkablashtirish tamoyili. Mashg'ulotlar eng sodda nutqiy birliklardan (tovush, bo'g'in, so'z) boshlanadi va asta-sekin: so'z birikmalari, sodda gaplar, murakkab gaplar, hikoya tuzish, matnni idrok etish bosqichlariga o'tadi ya'ni borgan sari soddadan murakkabga qarab harakatlanadi.

Hamkorlik tamoyili (oila – pedagog – mutaxassislar) Nutqiy rivojlanishning samarasi: logoped, surdopedagog, audiolog, psixolog va albatta ota-ona o'rtasidagi muntazam hamkorlikka bog'liq. Uyda bajariladigan mashqlar maktabdagi mashg'ulotlarni to'ldiradi.

Rag'batlantirish va motivatsiya tamoyili. Mashg'ulotlar bolani qiziqtiradigan: o'yinlar, jonli vaziyatlar, interfaol topshiriqlar, multimediali materiallar yordamida o'tkaziladi. Bola qanchalik qiziqsa, nutq shunchalik tez shakllanadi. Bu jarayonda turli joylarga uyushtiriladigan ekskursiyalar ham foydadan holi bo'lmaydi.

Zamonaviy texnologiyalarga tayanish tamoyili. Nutqiy tayyorlashda qo'llanadi: multimedia dasturlari, logopedik mobil ilovalar, audiotrenajyorlar, sun'iy intellekt asosidagi o'rgatuvchilar, interfaol doskalar. Bu vositalar bolalarda natijani tezlashtiradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun nutqiy tayyorlash texnologiyasining tamoyillari pedagogik jarayonni: ilmiy asoslash, tizimli qurish, individual ehtiyojga moslashtirish, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish imkonini beradi. Bu tamoyillar to'liq qo'llanganda bola maktabga samarali nutqiy tayyorlanadi, muloqot malakalari shakllanadi va o'qish jarayoniga muvaffaqiyatli kirishadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga nutqiy tayyorlash texnologiyasi — bu integrallashgan, kompleks yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Uning samarasi o'qituvchi, logoped, surdopedagog va ota-onaning birgalikdagi izchil faoliyatiga bog'liq. To'g'ri tanlangan texnologiyalar va zamonaviy vositalar yordamida bunday bolalar ham tengdoshlaridek bilim olish, fikr bildirish va jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli nutqiy tayyorgarlik texnologiyasi maxsus pedagogikaning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soliyeva, Z. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar metodikasi. – Toshkent: 2018.
2. Журба, Л.Т. Коррекционная работа с детьми с нарушением слуха. – Санкт-Петербург, 2019.
3. Джанибекова, М. Maxsus ehtiyojli bolalarda nutqni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent: 2019.
4. Moeller, M.P., & Tomblin, J.B. Children With Hearing Loss: Language, Learning, and Literacy. – Plural Publishing, 2021.
5. Mamarajabova Z. N. Korreksion pedagogika: eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarning nutqini rivojlantirishning pedagogik tizimi (ilmiy maqola). Toshkent: TDPU nashrlari, 2024.
6. Mamarajabova Z. N. Effective methods of speech development of disabled students in the process of literary education. Current Research Journal of Pedagogics, 2021.